



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ольга Кобзева БАРОНЫ РИХТГОФЕНЫ: ИСТОРИКИ И ГЕОГРАФЫ.....	5
2. Oybek Rashidov O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI.....	15
3. Sevara Pulatova O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA.....	21
4. Ойдин Маннопова ПЕРИОД СТАБИЛИЗАЦИИ И РОСТА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЕЙ (2000 – 2008 гг.).....	27
5. Faxriddin Yormatov ALISHER NAVOIYNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI VA DIPLOMATIK QARASHLARI.....	32
6. Feruza Atajanova OLIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR MOHIYATI: YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR VA NATIJALAR.....	37
7. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	42
8. Muslima Bazarova O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY QO‘LLAB- QUVVATLASHDA BANKLARNING O‘RNI.....	49
9. Diyora Chorshanbiyeva YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARI VA ULARNING NATIJAVIY TAHLILI.....	56
10. Муродилла Хайдаров ФРЕДЕРИК СТАПП [1] МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ... [2].....	62
11. Xamro Rahmonov O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATI.....	69
12. Umrbek Salayev QADIMGI XORAZM: TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI.....	75



Feruza Erkinovna Atajanova,
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali
Ijtimoiy-fanlar kafedrası,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent feruzaatanova845@gmail.com

OLIV TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR MOHIYATI: YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR VA NATIJALAR.

For citation: Feruza E. Atajanova. THE ESSENCE OF REFORMS IN HIGHER EDUCATION: ACHIEVEMENTS, SHORTCOMINGS, AND RESULTS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18700951>

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimga o'tkazilishi oliy malakali ilmiy hamda ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro talablar va standartlarga yaqinlashtirgani tilga olinadi. Maqolada shuningdek oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning sifati va samaradorligini tubdan oshirish, yanada takomillashtirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qabul qilingan O'zR Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmonining ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kadrlar tayyorlash, bakalavriyat, magistratura, dissertatsiya, attestatsiya, mustaqil izlanuvchi, falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc).

Феруза Эркиновна Атаджанова,
Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии,
Кафедра Общественные науки,
доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент
feruzaatanova845@gmail.com

СУТЬ РЕФОРМ В СФЕРЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ДОСТИЖЕНИЯ, НЕДОСТАТКИ И РЕЗУЛЬТАТЫ

АННОТАЦИЯ

В статье отмечается, что переход послевузовского образования на одноступенчатую систему приблизил систему подготовки высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров к международным требованиям и стандартам. Также в статье анализируется эффективность мер, принятых для реализации Указа Президента Республики Узбекистан № ПФ-4958 от 16 февраля 2017 года, направленных на радикальное улучшение и дальнейшее повышение качества и эффективности послевузовского образования и расширение возможностей для всестороннего проявления интеллектуального потенциала молодежи в научно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: подготовка кадров, бакалавриат, магистратура, диссертация, аттестация, независимый исследователь, доктор философии (PhD), доктор наук (DSC).

Feruza E. Atajanova,
Urgench Branch of the Tashkent Medical Academy,
Department of Social Sciences,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD),
Associate Professor
feruzaatazanova845@gmail.com

THE ESSENCE OF REFORMS IN HIGHER EDUCATION: ACHIEVEMENTS, SHORTCOMINGS, AND RESULTS

ABSTRACT

This article notes that the transition of postgraduate education to a single-cycle system has brought the training of highly qualified scientific and teaching staff closer to international requirements and standards. The article also analyzes the effectiveness of measures taken to implement Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4958 of February 16, 2017, aimed at radically improving and further enhancing the quality and effectiveness of postgraduate education and expanding opportunities for the full development of young people's intellectual potential in research.

Index Terms: training, bachelor`s degree, master`s degree, dissertation, certification, independent researcher, Doctor of Philosophy (PhD), Doctor of Science (DSC).

1. Dolzarbliqi. Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasida ilmiy-tadqiqot faoliyati, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o`tkazish samaradorligini oshirishga, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning rolini kuchaytirishga yo`naltirilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta`limini rivojlantirishning umummilliy davlat dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida ta`lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, zamonaviy o`quv-laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan umumta`lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta`lim muassasalaridan iborat, yuqori talablarga javob beruvchi uzluksiz ta`limning yaxlit tizimi yaratildi.

Oliy ta`limning zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura yaratildi. Stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutlari joriy qilindi, ularni moddiy rag`batlantirish sharoitlari sezilarli darajada yaxshilandi.

2. Metodlar. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, manbaviy qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketama-ketlik, xolislik, tizimlashtirish hamda fanlararo yondashuvlar asosida yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari. 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo`yicha oliy o`quv yurtidan keyingi ta`limning bir bosqichli tizimi joriy qilinishi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o`tkazish tizimini umum qabul qilingan xalqaro talablar va standartlarga yaqinlashtirishda muhim qadam bo`ldi. O`tgan davr ichida barcha zarur normativ-huquqiy baza shakllantirildi, o`rnatilgan talablarga muvofiq oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim institutlarining faoliyati, doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlash va himoya qilish tashkil etildi.

Shu bilan birga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur`atlar oliy o`quv yurtidan keyingi ta`limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg`or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etdi.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi [5]. Mazkur farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Fanlar akademiyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, shuningdek tasarrufida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari mavjud bo'lgan boshqa vazirlik va idoralarning qator xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotiga muvofiq 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali: dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura; dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimini joriy qilish to'g'risidagi takliflari qo'llab-quvvatlandi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori qabul qilindi. Unda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga qo'yiladigan davlat talablari tasdiqlandi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga qo'yiladigan davlat talablari oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimiga majburiy talablarni, shuningdek umumiy qabul qilingan xalqaro standartlarni hisobga olgan holda falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilarining dissertatsiya ishi mazmuniga va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi [5; 396].

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: tayanch doktorantura; doktorantura; mustaqil izlanuvchilik. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarida o'qish uch yilgacha davom etadi. Mazkur ta'lim institutini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi uchun OTM va ITMLar doimiy faoliyat ko'rsatadigan muvofiqlashtiruvchi-kollegial organga (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnikaviy kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqa shakllarda) ega bo'lishi lozim.

Tayanch doktoranturaga va doktoranturaga qabul qilish OTM yoki ITMLari tashkil etadigan qabul komissiyalar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov asosida amalga oshiriladi. Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlarni tanlab olish kirish imtihonlari natijalariga ko'ra, doktoranturaga suhbat natijalariga ko'ra, mustaqil izlanuvchilik institutiga rasmiylashtirish suhbat natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlariga xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni qabul qilish qonun hujjatlariga va yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi. Talabgorlarning tayanch mutaxassisligi oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutidagi ixtisoslik tegishli bo'lgan fan tarmog'iga muvofiq bo'lishi kerakligi belgilab qo'yildi. Mutaxassisliklar muvofiq bo'lmaganda dissertatsiyalarni tayyorlash va himoya qilish masalalari Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solinadi.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashni ta'minlash, shuningdek dissertatsiya tadqiqotlarini olib borishda ularga ilmiy va o'quv-metodik yordam ko'rsatish maqsadida Kollegial organ qarori bilan:

falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilariga ilmiy rahbarlar tayinlanadi;

fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilariga ilmiy konsultantlar tayinlanadi (mazkur bandning oltinchi bandi bundan mustasno).

Ilmiy rahbarlar etib, faol tarzda ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib boruvchi fan doktori, shuningdek ilmiy unvonga ega bo'lgan fan nomzodi yoki falsafa doktorlari (PhD) tayinlanishi mumkin.

Faol tarzda ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib boruvchi fan doktorlari ilmiy konsultantlar bo'lishi mumkin.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqotlarini, izlanuvchining xohishiga ko'ra, ilmiy konsultantsiz ham olib borish mumkin.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishda dissertatsiya himoyasiga qadar izlanuvchilar: ixtisoslik hamda chet tili bo'yicha malakaviy imtihon topshirishi;

dissertatsiya natijalarining xalqaro va respublika ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarida keng muhokama qilinishini ta'minlashi;

OAK tomonidan belgilangan ilmiy jurnallarda chop etilgan dissertatsiyasining asosiy natijalarini aks ettiradigan kamida uchta (shu jumladan bittasi xorijda) ilmiy maqolaga ega bo'lishi shart.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya himoya qilishgacha izlanuvchilar:

dissertatsiya natijalarining xalqaro va respublika ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarida keng muhokama qilinishini ta'minlashi;

OAK tomonidan belgilangan ilmiy jurnallarda chop etilgan dissertatsiyasining asosiy natijalarini aks ettiradigan kamida o'nta (shu jumladan bittasi xorijda) ilmiy maqolaga ega bo'lishi shart.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun izlanuvchilar dissertatsiya natijalari bo'yicha monografiya chop etgan bo'lishi lozim.

4. Xulosa. Quyidagilar oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorgarligining zaruriy va etarli darajasini belgilaydigan asosiy talablar hisoblanadi:

a) falsafa doktorlari uchun (PhD):

umumilmiy va aniq tarmoq tadqiqotlarining metodologiyasini egallagani, muammoni malakali tarzda aniqlashi va asoslay olishi, ilmiy ma'lumotlar va materiallarni maqsadli tarzda izlay olishi, tahlil qilishi, tizimlashtirishi va umumlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

tadqiqot natijalariga asoslanib muammo mazmunini bayon qila bilishni, ilmiy xulosalar va tavsiyalarni aniq va lo'nda ifodalay olishi;

ilmiy natijalarni amaliyotda joriy etish uchun taqdim qila olishi;

b) fan doktorlari uchun (DSc):

ixtisoslik bo'yicha chuqur fundamental bilimlarga ega bo'lishi;

fundamental tadqiqotlarni yuqori saviyada bajara olishi va muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ilmiy-amaliy muammolarni echa olishi;

ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etishi [5;106].

Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta'lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mo'minov N.A. Kelajakni oldindan qurish – fanning asosiy vazifalaridan biri. Toshkent. DITAF. 1995. – 212 b. (Muminov N.A. Predicting the future is one of the main tasks of science. Tashkent. DITAF. 1995. – 212 p.)
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent. "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b. 2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Innovative technologies in education (practical recommendations for teachers of educational institutions). – Tashkent. "Iste'dod" Foundation, 2008. – 180 p.
3. Milliy mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlashni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari. – Toshkent. Fan va texnologiya. 2009. – 115 b. (Directions for improving the management of personnel training for the national labor market. – Tashkent. Science and Technology. 2009. – 115 p.)
4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990 – 2010) asosiy tendentsiya va ko'rsatgichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik

to‘plam. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2011. [Elektron kitob]. (Main trends and indicators of the economic and social development of the Republic of Uzbekistan during the years of independence (1990-2010) and forecasts for 2011-2015: statistical collection. – Tashkent. “Uzbekistan”, 2011. [Electronic book].)

5. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 8-son, 106-modda; 2017-й., 21-son, 396-modda. (Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan. 2017, No. 8, Article 106; 2017, No. 21, Article 396.)

6. lex.uz/docs/3119699. 2017.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000